**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
S.Normamatov
2023 yil "___" avgust

**"TILSHUNOSLIKKA KIRISH"**
**FANI BO'YICHA**

# SILLABUS

**Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar

**Ta'lim yo'nalishi:** 60230800 – Kompyuter lingvistikasi

**Toshkent – 2023**

| Fan/modul kodi TK1105 | | Fan/modul turi majburiy | | Ta'lim tili o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024 | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta' lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma' ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 1 | Tilshunoslikka kirish | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 90 | 150 |
| | Jami: | 5 | 4 | 60 | 30 | 0 | 60 | 0 | 90 | 150 |

### Fan maqsadi (FM)

Fanni o'qitishdan maqsad - Kompyuter lingvistikasi ta'lim yo'nalishi talabalarini "Tilshunoslikka kirish" fanining predmeti va vazifalarini, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilshunoslik bilimlarining kompyuter lingvistikasi sohasidagi o'rnini bayon etish. Talabalarga tilning ijtimoiy tabiati, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til-lison-nutq munosabatini tahlil qilish, yozuvning shakllanish bosqichlarini, tilning semiotik tabiati, til sathlari, tillar oilasi, tilshunoslikning tadqiqot metodlarini tahlil qilish, tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar haqida ma'lumot berish.

Fanning vazifasi – tilshunoslik tarmoqlari, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, tasnifini o'zlashtirish, tilshunoslikning asosiy terminologik apparatini, tahlil metodlarini qo'llash kompetensiyasini shakllantirish.

### Ta'lim natijalari (TN)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- tilshunoslik fanining maqsadi va vazifalari, tilshunoslik tarmoqlari, xususan amaliy tilshunoslikning jamiyat hayotidagi ahamiyati, til va tafakkur, til va madaniyat, til va nutq munosabatlarini anglashi;
- til birliklarining o'zaro mutanosib, yaxlit tizim sifatida namoyon bo'lishini, til sathlari mohiyatini yoritishni, til sathlarining o'rganish obyektini tahlil qilishi;
- tilshunoslikning ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan aloqasi, tillarning tasnifi bilan tanish bo'lishi, tilshunoslik tadqiqot metodlari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi kerak;***



- tilshunoslikka doir asosiy tushunchalarni o'zlashtirishi, muayyan nazariy masalalar doirasida mustaqil fikrlay olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;
- tilshunoslik bo'yicha ilmiy adabiyotlarga o'z nuqtayi nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana olish ***malakasiga ega bo'lishi zarur.***

### Talabalarning kreditlarni olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" Nizomning 15- va 30-bandlariga asosan Tilshunoslikka kirish fanidan 150 soat (1-semestrda 150) o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi(sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egalagan talabaga 5 (1-semestrda 5) kredit beriladi.

Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

### Talabalarning bilimini baholash mezonlari:

**5(a'lo) baho.** Talaba ***yozma, og'zaki, amaliy ish*** topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to'g'ri tahlil etish asosida ma'lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'g'ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.

**4(yaxshi) baho.** Talaba ***yozma, og'zaki, amaliy ish*** topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muayyan nazariy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

**3(qoniqarli) baho.** Talaba ***yozma, og'zaki,*** amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, nazariy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq

izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan nazariy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talabada fikrni izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

**2(qoniqarsiz) baho.** Talaba fan bo'yicha yetarli bilimga ega emas, nazoratlarda juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, og'zaki savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

**Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** 1 ta.

Oraliq nazorat yozma shaklda o'tkaziladi.

Tilshunoslikka kirish fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga yozma javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savolnoma savollari fan mavzulariga tegishli manbalar mazmunini qamrab oladi. Har bir savol uchun 20 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

Yozma ishni baholash mezoni: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba jami savollardan 0 va undan kami (59-0%)ga to'g'ri javob bersa 2 baho beriladi va ONni topshira olmagan hisoblanadi.

**Yakuniy nazorat:** Tilshunoslikka kirish fani uchun har bir talaba 3 ta savoldan iborat variant savollariga og'zaki javob beradi. Nazorat auditoriyada tashkil etiladi. Variant savolnoma savollari fan mavzularining barchasini qamrab oladi. Har bir savol uchun 5 daqiqa, jami 3 ta savol uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Nazorat jarayonida savollar bilan bog'liq xatolar aniqlansa, talaba nazoratchiga murojaat qiladi, nazoratchi tegishli ravishda dalolatnoma tuzadi. Nazorat natijalari e'lon qilingach talabada e'tiroz bo'lsa, 24 soat davomida ariza bilan dekanatga murojaat qilishi mumkin. Murojaat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi.

O'g'zaki ishni baholash mezoni: Talaba jami savollardan 3 tasi (90-100%)ga to'g'ri javob bersa 5 baho beriladi. Talaba jami savollardan 2 tasi (70-89%)ga to'g'ri javob bersa 4 baho beriladi. Talaba jami savollardan 1 tasi (60-69%)ga to'g'ri javob bersa 3 baho beriladi. Talaba savollarga noaniq va noto'g'ri javob bersa (59-0%) 2 baho beriladi va YNni topshira olmagan hisoblanadi.

***Izoh:** Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*



*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

| | **Fan mazmuni** | **Soat** |
|---|---|---|
| | **Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (1-semestr)** | **30** |
| M1 | **Til – insonning eng muhim aloqa vositasi** | 2 |
| M2 | **Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar** | 2 |
| M3 | **Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan munosabati** | 2 |
| M4 | **Tilning semiotik tabiati.** | 2 |
| M5 | **Til birliklari o'rtasidagi munosabatlar** | 2 |
| M6 | Fonetik-fonologik sath | 2 |
| M7 | **Tilning lug'at sathi.** | 2 |
| M8 | **Grammatik sath.** | 2 |
| M9 | Morfonologiya | 2 |
| M10 | Morfologiya. Sintaksis | 2 |
| M11 | **Til va yozuv. Yozuv turlari.** | 2 |
| M12 | **Dunyo tillari tavsifi va tasnifi.** | 2 |
| M13 | **Oltoy tillari oilasi.** | 2 |
| M14 | **Tilshunoslikning tadqiqot metodlari.** | 2 |
| M15 | **Tilshunoslik va boshqa fanlar integratsiyasi** | 2 |
| | **Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (1-semestr)** | **30** |
| A1 | "Tilshunoslikka kirish" fanining asosiy masalalari | 2 |
| A2 | Tillarning shakllanishiga doir nazariyalar | 2 |
| A3 | Tilning ijtimoiy vazifalari | 2 |
| A4 | Til- ramzlar tizimi | **2** |
| A5 | Til birliklari va mantiqiy tushunchalar | 2 |
| A6 | Til sathlari | 2 |
| A7 | Leksikologiya | 2 |
| A8 | Morfemika.Morfema tushunchasi | 2 |
| A9 | Morfonologik alternatsiyalar | 2 |
| A10 | Grammatika | 2 |
| A11 | Yozuvning tarixiy ahamiyati | 2 |
| A12 | Til oilalari va til guruhlari | 2 |
| A13 | Turkiy tillar tasnifi | 2 |
| A14 | Sinxron va diaxron tadqiqot metodlari | 2 |
| A15 | Tilshunoslikka yondosh sohalar | 2 |

| Mustaqil ta'lim (MT) (1-semestr) | | | soat |
|---|---|---|---|
| T/r | Mustaqil ta'lim mavzulari | Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari | 90 |
| 1 | Tilshunoslik va tabiiy fanlar | Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va topshiriqlarni bajarish. | 45 |
| 2 | Amaliy lingvistika | Vaziyatli masalalar (kauzuslar) tuzish | 10 |
| 3 | Nazariy tilshunoslik | Berilgan manbalarni tarjima qilish | 10 |
| 4 | Kompyuter lingvistikasi | Tilshunoslikka oid berilgan mavzu bo'yicha esse yozish | 5 |
| 5 | Tilninig vazifalari. | Anjumanga tezis tayyorlash | 5 |
| 6 | Til- belgilar tizimi | Berilgan mavzu bo'yicha taqdimot(PPT) tayyorlash | 15 |


**Asosiy adabiyotlar**

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1992.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1996.
3. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2019.
4. Yo'ldoshev I. va b. Mutaxassislikka (tilshunoslikka) kirish. –Toshkent, 2018.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони ("Халқ сўзи", 2017 йил, 8 феваль).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари" тўғрисида ("Халқ сўзи" 2017 йил, 21 апрель)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni (https://lex.uz/docs/4561730)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni (https://lex.uz/docs/5058351)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'RQ-615-son Qonuni (https://lex.uz/docs/4784608)
10. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildli. 1-jild. – T.: Akademnashr, 2012
11. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.- Toshkent:Fan, 2013
12. Sanaqulov U., Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. (O'quv qo'llanma).- SamDU nashriyoti, 2019. - 164 bet.





13. Sayfullayeva R.R., Abuzalova M.Q. va b. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2021.-259
14. Худойберганова Д.Тил.Тафаккур.Маданият. –Тошкент, 2020

**Axborot manbaalari**

1. Введение в языкознание http://homepages.tversu.ru/
2. Введение в языкознание http://www.alleng.ru/
3. Введение в языкознание. Маслов Ю.С. http://philologos.narod.
4. Словари и справочники http://www.gramota.ru/
5. http://library.ziyonet.uz/ru/book/index/
6. https://www.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/
7. https://e-library.namdu.uz/
8. https://coollib.com/b/139320/read


**Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot**

| | |
|---|---|
| **Muallif:** | M.Abdurahmanova – ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi |
| **E-mail:** | MParfi2005@yandex.ru |
| **Tashkilot:** | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalari kafedrasi |
| **Taqrizchilar:** | Xolmanova Z. – ToshDO'TAU professori, filologiya fanlari doktori.<br>Keldiyorova G.– O'zMU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (turdosh OTM) |

Mazkur sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil ____-avgustdagi _____-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalari" kafedrasining 2023-yil ____-avgustdagi ___-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

| | |
|---|---|
| **O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i** | V.Nazarov |
| **Fakultet dekani** | B.B. Elov |
| **Kafedra mudiri** | B.B. Elov |
| **Tuzuvchi** | M.Abdurahmanova |